KASBGA YO‘NALTIRISH ISHLARINI TASHKIL ETISH

Pardayev Zafar Shukurovich
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi
Ta’lim sifati nazorati bo‘limi boshlig‘i
Email: zafar_1978@umail.com

Annotasiya: Maqolada bolalar (MTT tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi-yoshlar)ni kasbga tayyorlash, kasbga yo‘naltirishning tartibi, qoidalari, zarurati haqidagi Sharq allomalarining qarashlari, Yevropada amalga oshirilgan ishlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bu jarayonda jamiyat a’zolarining har biri (ota-ona, qarishdosh-urug‘, mahalla)dan amal qilinishi lozim bo‘lgan tadbirlar, kasbga yo‘naltirishda bolaning aqliy, axloqiy, jismoniy imkoniyatlarini, jamiyatning kasbiy ehtiyojlarini hisobga olish zarurati haqida ilmiy materiallarga murojaat qilinadi.

Kalit so‘zlar: Kasb, kasb tarbiyasi, kasb etikasi, kasb etiketi, qiziqish, yoqtirish, ehtiyoj, tartib, zarurat, kasbga yaroqlilik, yaroqsizlik, loyiqlik, munosiblik, insonshunoslik, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbga yo‘llash.

ОРГАНИЗАЦИЯ РАБОТЫ ПО ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОНСУЛЬТАЦИИ

Аннотация: В статье представлены взгляды ученых-восточных специалистов на порядок, правила и необходимость профессиональной подготовки и ориентации учеников, а также информация о работе, проводимой в Европе. В этом процессе приводятся ссылки на научные материалы о мерах, которые должен предпринять каждый член общества (родители, родственники, махаля), о необходимости учитывать умственные, нравственные и физические способности ребенка, а также о профессиональных потребностях общества при направлении его к профессии.

Ключевые слова: Профессия, профессиональное образование, профессиональная этика, профессиональный этикет, интерес, симпатия, потребность, порядок, необходимость, пригодность для профессии, непригодность, достоинство, достоинство, гуманитарные науки, выбор карьеры, профориентация, направление к специалисту.

ORGANIZATION OF CAREER GUIDANCE WORK

Abstract: This article presents the views of Eastern scholars on the procedures, rules, and necessity of vocational training and orientation for students, as well as

information on work being conducted in Europe. References are provided to scholarly materials on the measures that every member of society (parents, relatives, and community) should take, the need to consider the child's mental, moral, and physical abilities, and the professional needs of society when guiding them toward a profession.

Key words: Profession, professional education, professional ethics, professional etiquette, interest, sympathy, need, order, necessity, suitability for the profession, unsuitability, dignity, worth, humanities, career choice, career guidance, referral to a specialist.

Kirish. Kasbga yo‘naltirish ishlarining muvaffaqiyati har bir zamon va makon uchun beqiyos ijobiy natijalarga olib boradi. Jamiyat va davlatlarning boshqarish shakli, tuzimi, geografik joylashishi, iqlimi va boshqalardan qat’iy nazar bu faoliyatning samarali tashkil etilishi mamlakatlarni har tomonlama qudratli eta oladi: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, harbiy. Ushbu qarorga kelishimizning asl sababi, bu o‘sha mamlakatlarda faoliyat olib borayotgan kasb egalari bilan bog‘liq. Albatta, mamlakatning qanchalar qudratli, boy, farovon bo‘lishligiga kasb egalari, hunarmand, ishchi, dehqon, chorvador, qo‘ying-ki, barcha xizmatchilarning kasbiy

bilim, malaka, odob, axloq, tarbiya, etika, etiket, mahorati bilan erishiladi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, ushbu kasb egalari o‘z kasblarini sevib, qiziqib, ongli ravishda tanlagan va faoliyatidan zavqlanadigan bo‘lishlari talab etiladi. Fikrimizni maqola davomida keltiriladigan ilmiy ma’lumotlar bilan asoslashga harakat qilamiz.

Sharqning buyuk alloma, olim, shoir, davlat arbobi, sarkarda, mutafakkir va ma’rifatparvar kishilari al-Xorazmiy, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mahmud Qoshg‘ariy, Husany Voiz Koshifiy, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqalarning asarlarida Markaziy Osiyoda yashagan va yashayotgan xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqining oilaviy hayoti, tarbiya jarayonidagi milliylik, tarbiyaviy muhitning o‘ziga xosligi, kishilarning turmush tarzi, ota-onalarning farzand oldidagi burch va vazifalari, farzandning ota-ona oldidagi burch va vazifalari, yoshlarni ta’lim-tarbiya va kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonlari haqida qimmatli fikr va ma’lumotlar berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Imom al-Buxoriyning “Al-jome as saxix”, Beruniyning “

Masalan, “Avesto”da bolalar yoshligidan daraxt ko‘chati o‘tqazishni, uy-ro‘zg‘or qurollari yasashni, yerga ishlov berishni bilishlari kerakligi haqida ko‘plab satrlar keltirilgan. “Avesto”da targ‘ib etilgan, eng qutlug‘ kasb-hunar deb “dehqonchilik» e’tirof etilgan [3, 11].

Shuningdek, “Avesto” kitobida Sirdaryo va Amudaryo sohillarida yashovchi halqlarning kasb-kori, savdo-sotig‘i, har bir hunar egasining jamiyatda tutgan o‘rni alohida qayd etilib, dehqonlar va chorvadorlar moddiy ne’matlarni yaratuvchi sifatida ta’riflanadi. Yoshlarni kasb-hunar egallashlarining bosh omili, ma’naviy merosi deb “mehnat qilish jarayoni” ta’kidlanadi.

Musulmonlarning muqaddas kitobi “Qur’oni Karim”da ham inson yaxshi xulq egasi bo‘lishi, halol kasb-kori evaziga ro‘zg‘or tebratishi zarurligi ta’kidlangan.

Islom olamining buyuk muhaddisi Imom al-Buxoriy, o‘zining “Al-jome as saxix” (Ishonarli to‘plam) asarida kasb-hunar o‘rganish, halol mehnat qilish va uning afzalliklari haqida hadislar to‘plab, ularni sharhlab bergan. Jumladan, “Tikuvchi haqida”, “Savdo ishlari” haqida e’tiborga molik alohida bob va hadislar keltirib o‘tgan.

Buyuk allomalarning kasbiy mehnat ta’limi va tarbiyasi yosh avlod ta’lim va tarbiyasining tarkibiy qismi sifatida qaralib, uni aqliy, ma’naviy, jismoniy tarbiya bilan birgalikda qo‘shib olib borish lozimligi to‘g‘risidagi fikrlari katta ahamiyatga ega. Shuningdek, ta’lim-tarbiyani amalga oshirishda bolaning moyilligi va qobiliyatini hisobga olish zarurligi ta’kidlab o‘tiladi.

Abu Nasr Forobiy o‘z asarlarida insonni ilm-ma’rifatli bo‘lish, halol mehnat qilish, kasb-hunar egallashda inson shaxsining ijodiy, barkamollik kuchi va kamoloti, qadr-qimmatini ulug‘lashga chorlaydi.

Buyuk matematik al-Xorazmiy o‘zining “O‘gitlari”da “Mehnat bu bir sel, agar shu sel to‘xtab qolsa, singib ketadi” - deb fikr yuritadi. Ya’ni, alloma, sel bu suv, suv esa hayotning asosidir, suvsiz hayot bo‘lmaganidek, mehnatsiz ham hayot bo‘lmasligini uqtiradi.

Abu Rayhon Beruniy kishilarning baxt saodati, kamoloti uning halol mehnat qilishi, kasb-hunar o‘rganishida, deb biladi. Beruniyning “Geodeziya”, “Minerologiya”, “Hindiston”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli asarlarida o‘zi yashagan davrda ishlab chiqarish va kasb-hunar o‘rganishning naqadar rivojlanganligi haqida ma’lumot beradi. “Barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr qimmati, uning avlod-ajdodi kim bo‘lganligi bilan emas, balki uning halol mehnati bilan ulug‘lanadi, buning uchun mehnat zarur, faqat aql idrok va mehnatning jonlanishigina kishilar hayotini belgilab beradi” – deydi.

Mutafakkirning quyidagi hikmatli so‘zlari tahsinga loyiqdir: “Har bir insonning qadr-qimmati o‘z ishini qoyil qilib bajarishida”, “Asalarilar ham o‘z jinsidan bo‘la turib, ishlamay o‘z uyasida asalni yeb yotadiganlarini o‘ldirib tashlaydi” [3, 12].

Beruniy insonni halol mehnat qilishi va kasb-hunar egallashi tufayli aqli, zakovati, qobiliyati, qudrati oshib borishiga ishonadi. Bu bilan u mehnatsevarlik, o‘z kasbini ardoqlashdek fazilatlarni nihoyatda qadrlaydi.

Alloma yoshlarni eng kichik yoshidan boshlab qobiliyatiga qarab mehnat qilishga o‘rgatish, kattalar mehnatini qadrlaydigan qilib tarbiyalash, bolani bilim va kasbga o‘rgatishni ijobiy baholaydi. Tarbiyaning oiladan boshlanishi va kamolot sari ketayotgan bolada ta’lim-tarbiyaning keyingi bosqichlari bilan davom ettirilishi lozimligini ta’kidlab o‘tadi. Tarbiyada ustoz shogirdini jismoniy jazolashi va uning keyingi faoliyat uchun ahamiyatli ekanligi haqida ham fikr bildirib o‘tadi.

Tabobat ilmining bilimdoni Ibn Sino bolani kasb-hunarga o‘rgatishdan avval, uning qobiliyati va qiziqishini aniqlashning muhimligini alohida ta’kidlaydi, shundan keyingina bolaga o‘zi tanlagan kasb-hunar sir-arorlarini o‘rgatish mumkin deb hisoblaydi. Jumladan, ushbu qimmatli fikrni aytib o‘tadi: “Har bir odamni o‘zining qiziqishi va layoqati, iste’dodiga qarab o‘qitish kerak, aks holda ta’lim va tarbiya ko‘zlangan natijani bermaydi”.

Donishmand Yusuf Xos Hojib: “Har bir kishi ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisi sifatida hunar o‘rganmog‘i, o‘z hunari bilan xalqiga, vataniga xizmat qilishi zarur” – deb hisoblaydi. Farzandlarini foydali mehnatga o‘rgatmasdan ortiqcha erkalatib, kelajakda noloyiq xatti-harakat qilishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aybdor bo‘layotgan ota-onalarni qattiq qoralaydi. Har bir ota-ona o‘z farzandiga yoshligidan hunar o‘rgatishi lozimligini qayta-qayta uqtiradi [3, 13].

Sohibqiron Amir Temur armiyasi uchun askarlarni tanlashda ularning quyidagi uch belgisiga ahamiyat qaratgan va shunga tayanib hukm chiqargan:

- askarning kuch ishlata olish sifatlari bo‘yicha;
- askarning qilichni egallash darajasi va sifati bo‘yicha;
- askarning aqliy sifatlari va ziyrakligi, zehni o‘tkirligi bo‘yicha.

Mazkur belgilar asosida Amir Temur askarlarning darajasi, lavozimi, mansabini belgilab olgan. Natijada uning askarlari charchashni bilmagan, ochlikda ham to‘qlikda ham sovuq va issiqda ham bir xil harakatlana olgan.

Alisher Navoiy ta’lim oluvchilarning individual, o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarurligini ta’kidlab, insonlar tabiatan teng bo‘lsalar ham ammo ularga turli fazilatlar berilganligini aytib o‘tadi. Bunday qarashlar o‘rta asrlarda yashagan mutafakkirlar asarlarida tez-tez uchrab turadi. Ya’ni, yoshlarga qobiliyati va moyilliklarini inobatga olib, jiddiy o‘ylab, mehnat faoliyatini tanlash to‘g‘risida pand-nasihatlarni berish kerak.

Navoiy hazratlarining zamondoshi Jaloliddin Davoniy “Bir odam turli kasb-hunarlar bilan shug‘ullanmasligi kerak, chunki bu odam tabiatiga to‘g‘ri kelmaydi va bu odam hyech qachon ijobiy natijaga erisha olmaydi. Zero, har bir hunar munosib ravishda diqqat, e’tiborni va vaqtni talab etadi. Kishilar imkoniyatlariga bog‘liq ravishda o‘zlari o‘rganayotgan kasb-hunarlarning bittasini to‘g‘ri tanlash lozim”ligi haqida gapirgan.

Xusayn Voiz Koshifiy hunarmand kishilardan insofli-sofdil bo‘lishlari barobarida boshqalarga o‘rnak bo‘lishlari kerakligini ta’kidlaydi. Odamlarni hunarmandlarning axloqiy fazilatlarini hurmat qilishga va ulardan o‘rnak olishga da’vat etadi. Yoshlarga kasb-hunar o‘rgatish orqali halol mehnat qilishga chaqiradi.

Forobiy kasb-hunar tanlashda avvalombor turli fe’l-atvordan kelib chiqadigan amallarni sanash, shulardan qay bir amalni bajarishdan rohatlanish va qay birini bajarishdan iztirob chekishni hisobga olish, shundan so‘ng ma’lum bir qarorga kelish lozimligini uqtiradi. Ibn Sino har bir odamning mijozidan kelib chiqib unga alohida e’tibor berish kerakligini ta’kidlaydi. Allomaning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo‘lgan xususiyatlargagina egadir, unga o‘xshagan kimsalar kamdan-kam uchraydi.

Shu o‘rinda bir ma’lumotga e’tibor qaratish lozim deb o‘ylayman, Sharqda insonshunoslik, insonni bilish metodikasi bo‘yicha ming-ming yillik tajriba bor. Insonni bilishning oddiy sharqona usuli pedagogik tashxisda qo‘l keladi. Bu borada genetik va biastrologik metodlar ham bor. Demak, Forobiyning fikricha kasb-hunar tanlashda insonning tabiati, fazilati, o‘zligi, qobiliyati, iste’dodi, xulq-atvorini hisobga olish shart. Yoshlar hunar egallash bilan birga ularda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy hislari ham tarkib topadi, hunar egallash orqali sabr bardoshlik, halollik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi. Ana shunda o‘z kasbining fidoiy egalari yetishib chiqadi. Bu kasb egalari kasbi, hunari, xizmati ortidan kishilarga, jamiyatga, insoniyatga faqat va faqat naf keltiradi. Kasbni rivojlantiradi, uni cheksiz yuksaklikka olib chiqadi.

Umuman, azaldan yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda, ularga ma’lum bir sohada xizmat vazifasi yuklatishda insonshunoslik asoslariga e’tibor qaratilganligi tahsinga sazovor. Albatta, bugungi kunda ham o‘sha an’analarga e’tibor qaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu masala ta’lim-tarbiya, kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida bolaning nafaqat individual (o‘ziga xos) qobiliyati, qiziqish va moyilliklari, layoqati, tarbiyalanganlik darajasi, psixofiziologik imkoniyatlari kabi ijobiy fazilatlarini, balki uning tabiatiga xos bo‘lgan salbiy: dangasalik, qo‘rqoqlik, no‘noqlik, xasislik, qo‘rslik, dag‘allik, jur’atsizlik kabi illatlarini ham hisobga olish lozimligini bildiradi.

O‘zbek xalqining og‘zaki ijodida ham bu masalalar yaqqol namoyon bo‘ladi. Ularda oilada o‘g‘il bolalarni milliy an’analar ruhida oilaviy hayotga tayyorlashda mardlik, halollik, kamtarlik, ishonch, sevgiga sadoqat, do‘stlik, adolatparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, hamfikrlilik, orastalik, go‘zallik, oqillik, e’tiqod, halol va pok yashash kabi insoniy fazilatlar ulug‘langan va farzand tarbiyasida bu fazilatlar ularning ongiga singdirib borilgan. Bu voqyelikni biz “To‘maris”, “Shiroq”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayxo”

kabi vatan himoyachilari va xalq dostonlarining qaxramonlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

G‘arb davlatlarida ham yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda ularning moyilligini e’tiborga olinadi. Bu yerda dastlabki kasb tanlashga oid ish 1849-yil Fransiyada “Kasb tanlash bo‘yicha rahbarlik” kitobi nashr etilishi bilan boshlandi. Keyinchalik shaxsni baholash uchun testlardan foydalanilgan bo‘lsa, XX asrning boshlarida Angliya, Germaniya va AQShda ham kasb tanlash bo‘yicha xizmatlar tashkil etildi.

Kasb tanlash ishlarini birinchilardan bo‘lib boshlagan J.Fonten “Kasb tanlash o‘smir shaxsini kasb qo‘ygan talablarga mos kelishi yoki mos kelmasligini aniqlashga qaratilgan”, deb yozadi. Fransiya kasb tanlash Birlashgan Akademiyasi: “Kasb tanlash oilaga yordam berish maqsadida amalga oshirilib, u o‘smirning tanlagan kasbiy faoliyatning shunday sohasiga yo‘naltirilishi kerakki, bunda uning qobiliyatlari va dastlab namoyon qilgan qiziqishlari maksimal darajada mos kelsin va o‘smirning oilaviy sharoiti va mehnat bozori talablarini hisobi holatiga maksimal darajada mos bo‘lsin”, degan ta’rif berilgan.

1908-yil AQShda o‘smirlarning o‘z shaxsiy mehnat yo‘lini tanlashga yorodam beruvchi yoshlarni kasbga yo‘naltiruvchi byuro faoliyatini boshladi. “Kasb tanlash” nomli dastlabki kitob muallifi Parson tashkil etgan bu byuroning asosiy maqsadlaridan biri odamni kasbga tanlab olish emas, balki odamning qobiliyatini hisobga olgan holda unga mos keluvchi kasb tanlab olishga yordam berish edi [3, 20].

1922-yil Germaniyada kasbga yo‘naltirish va maslahat to‘g‘risida qonun qabul qilindi va shu asosda ushbu tizimni amalga oshirish mezonlarini ifodalovchi Nizom tasdiqlandi.

Sobiq ittifoq davri va mamlakatlarida kasb tanlash ishlari quyidagi chizgilarda namoyon bo‘ladi. Kasb tanlashga oid dastlabki adabiyot 1897-yil Peterburg universiteti professori N.N.Kareyev tomonidan “Fakultetni tanlash va universitetda o‘qish” nomida nashr etildi.

1910-1936-yillarda ta’limni hayot, mehnat bilan aloqasi asosida mehnat politexnik maktabni qurish orqali o‘quvchilarni kasbga yo‘llash tizimini shakllantirish bo‘yicha maqsadga qaratilgan ilmiy izlanishlar va amaliy ishlar yo‘lga qo‘yildi.

Moskvadagi o‘qituvchilar uyining Pedagogik muzeyida turli tipdagi maktablar o‘quvchilarini kasb tanlashiga oid qator izlanishlar olib borilgan. Bunda asosiy e’tibor qaysi kasblarning talabga mos ekanligi, ularni tanlashda o‘quvchilarning qanday sifatlarga tayanishini asoslanishini namoyon qilishga qaratilgan. Muzey 1917-yilda 100 ga yaqin kasblar to‘g‘risida materiallar tayyorlab, nashr ettirgan.

1926-yilda M.Ya.Basov “Shaxs va kasb. Ongli kasb tanlashni ilmiy o‘rganishga doir” nomni kitobini nashr ettirdi. Muallifning fikriga ko‘ra, o‘z kasbiy

hayot yo‘lini tanlash masalasi har bir insonning hayotida muhim masala hisoblanadi; uni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri hal qilish uning kelgusi hayot yo‘lini, uni quvonchli, baxtli yoki achchiq bo‘lishini aniqlaydi.

Sobiq ittifoq davrida O‘zbekistonda ham kasbga yo‘naltirish ishlariga e’tibor berilgan bo‘lsada, o‘sha dars uchun bu ishlarni yetarli darajada yuqori saviyada tashkil etilgan yoki etilmaganligi haqida aniq ma’lumot aytish qiyin. Shuni ta’kidlash kerakki, Pedagogika institutlarida mehnat ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash kurslari uchun “O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish” fani kiritilib, o‘quv-uslubiy, me’yoriy hujjatlarni tayyorlash uchun jalb etilgan 2120 nafar mutaxassislar orasida o‘zbek mutaxassis olimlari ham bor edi. “Umumtexnika va mehnat”, “Mehnat va fizika” ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv dasturi, o‘quv qo‘llanma va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda SamDPI olimlari ham faollik ko‘rsatishgan [3, 22].

Muhokama. Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligi davrida ta’limni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan ayrim me’yoriy-huquqiy hujjatlar mazmunida kasbga yo‘naltirish ishlariga e’tibor qaratilgan. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi mazmunida, “Umumta’lim maktablarida “Kasbga yo‘naltirish fani xonasi”ni tashkil etish to‘g‘risida” kabi hujjatlarda o‘quvchilarni kasb-hunar yo‘naltirish haqida ma’lumotlar berilgan.

O‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish borasidagi tajribalarimiz Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Professonal ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi Farmonida mazmuni asosida davom ettiriladi.

Bugungu kunga qadar davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarni malakali kasb-hunar egalari bo‘lishlari borasida qator rasmiy va ba’zan norasmiy hujjatlar chiqarilgan. Prezidentimiz yoshlar haqida so‘zga chiqganda, albatta, ularning taqdiri, kelajagi, kasb va hunar egalari bo‘lishlari haqida kuyunib gapiradilar.

Umuman, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi yoshlarni kasbga yo‘naltirish masalasi O‘zbekiston Respublikasi uchun ham barcha davlatlar qatori muhim strategik masala bo‘lib, uni ijobiy hal qilish, nafaqat tarbiyachi-pedagoglar jamoasi uchun, balki, butun boshli mamlakat uchun eng dolzarb masalalardan biri bo‘lishi shart.

Kasbga yo‘naltirish ishlaridan avval, bola albatta, tarbiya, joiz bo‘lsa kasbiy tarbiyalanmog‘i kerak. Oilada ota-ona farzandining bajarayotgan har bir ishini sidqidildan bajarib, sifatli nihoyasiga yetkazilishiga odatlantirishi kerak. Bunday tarbiya bolaning ongiga majburan emas, balki, ixtiyoriy majburiy tarzda singdirilmog‘i zarur. Buning uchun tarbiyachi (ota-ona)lar bola (farzand)ning qiziqishi, qaysi ish turini bajarishdan bolaning zavq olishini hisobga olishi shart.

Kasb-hunarga yo‘naltirish tarbiyasi avvalo oiladan boshlanadi. Oilada bola o‘zining aqliy, axloqiy va jismoniy imkoniyatidan kelib chiqib uy-ro‘zg‘or ishlariga jalb etilishi shart. Bu tarbiya bolani mehnat qilish bilan birgalikda, undagi kasb-hunar fazilatlarini shakllanib borishiga xizmat qiladi. Bola ro‘zg‘orda mavjud asbob-uskuna va tabiat inom etgan ne’matlarda oqilona foydalanish bilimiga ega bo‘lib borishi lozim. Suv ichish, dasturxon tuzatish, choy damlash, gul ekish, daraxt ko‘kartirish, atrofdagilar bilan suhbatlasha olish kabi.

Kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil etishda, umumiy tarzda olinadigan ikki bosqichga e’tiborni qaratish muhim ahamiyatga ega. Birinchidan: **kasbga yo‘naltirish** va ikkinchidan: **kasbga yo‘llash**.

Jarayonni tashkil etish nuqtai nazaridan bu ikki tushuncha bir-biriga yaqin tushunchalar. Biroq ilmiy nuqtai nazardan bu tushunchalarni chegaralash, mazmunini aniq bilish va har bir bosqichda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarda chalkashliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu tushunchalarni sodda tilda quyidagicha ta’riflash mumkin [2].

Kasbga yo‘naltirish – tarbiyalanuvchi va o‘quvchilarga kasblar haqida tizimli ma’lumotlar berish jarayoni.

Kasbga yo‘llash – bo‘lg‘usi kasb egasini uning qizig‘ish, imkoniyat, qobiliyat, qodirligi, shaxsiy fazilatlariga mos bo‘lgan kasb yoki kasb profilini tanlash uchun maslahat berish [1].

Kasbga yo‘llash jarayonini kasbga yo‘naltirish jarayonining muhim yakuniy qismi, deb qarash ham mumkin va albatta, bu qismda o‘ziga xos ma’lumotlar berish talab etiladi.


Mezon	Kasbga yo‘naltirish	Kasbga yo‘llash
Jarayon xarakteri	Nazariy, psixologik va pedagogik ko‘mak	Amaliy, tashkiliy va maqsadli safarbarlik
Qamrovi	Kasblar dunyosini keng o‘rgatish	Aniq o‘qish yoki ish joyini ko‘rsatish
Natijasi	Inson o‘z kelajagini anglaydi va kasb tanlaydi	Inson aniq muassasada ta’lim oladi yoki ish boshlaydi

Bu jarayonlarni soddaroq tushunishga harakat qilamiz: kasbga yo‘naltirish jarayonida o‘quvchilar faqat kasblar olamiga sayohat qiladi, mavjud kasblar, kelajak kasblari haqidagi ma’lumotlar bilan tanishadi. O‘zini shu kasb egasi sifatida tasavvur qilib ko‘radi, bir nechta kasblarni taqqoslaydi, ma’lum darajadagi xulosalarga keladi. Bu jarayonda o‘qituvchilar yoki kasbga yo‘naltiruvchilar (masalan, ota-ona) bir kasbni ikkinchisidan ustun qo‘ymasligi zarur. Aks holda, bolani tasavvurida kasblar haqida yaxshi-yomon, kerakli-keraksiz, ijobiy-salbiy kabi qarama-qarshi fikrlar paydo bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida uning kasbni to‘g‘ri va ongli tanlashiga to‘sqinlik (xalaqit) qiladi.


O‘quvchi kasblar haqida to‘liq va to‘g‘ri ma’lumotlarga yetarlicha ega bo‘lganda, uni kasbga (yoki sohalar bo‘yicha kasblar profiliga) yo‘llash mumkin.

Tahlil va natijalar. Kasb tanlashga yo‘naltirish ishlari sifat va mazmun jihatdan yuqori darajada tashkil etilishi uchun, albatta, bu jarayonga mas’ullar (avvalo, o‘qituvchilar, ota-onalar, MTT tarbiyachilari, mahalla faollari)da yetarli darajada bilim bo‘lishi talab etiladi. O‘tkazilgan kichik so‘rovnomamiz natijalariga tayanib aytishimiz mumkin-ki, jarayonni yanada samarali qilish borasida qilishimiz lozim bo‘lgan ishlar, muammolar ko‘p.


Maktabingizda kasbga yo‘naltirish ishlarini qanday baholaysiz?




Kasbga yo‘naltirish ishlarida kim mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi kerak?



Ushbu tushunchaning mazmunini bilasizmi? ..... - o‘quvchilarga kasblar haqida ma’lumotlar beriladi.



Ushbu tushunchaning mazmunini bilasizmi? ..... - o‘quvchiga ma’lum bir kasb profilini tanlash tavsiya etiladi.



Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, tarbiyalanuvchi-o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirish ishlari to‘g‘ri tashkil etish orqali mamlakatimizda malakali kadrlar tayyorlash uchun mustahkam poydevor yaratish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Natijada, mamlakatimizning barcha: moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish, fan, texnika, texnologiya sohalarida samarali mehnat qiladigan kadrlar, kasb va hunar egalari paydo bo‘ladi. Mamlakatimiz har tomonlama: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy, fan, sport va boshqa sohalarda yetakchi mamlakatlar qatoriga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2024-yildagi “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-347-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.12.2021-yildagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 792-son Qarori.
3. N.Shodiyev va boshqalar. O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirish. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “Fan bulog‘i” nashriyoti, 2023-yil. 202 bet.
4. N.Shodiyev va boshqalar. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish. Uslubiy qo‘llanma. - Samarqand: SamDU, 2015. – 134 b.
5. N.Shodiyev va boshqalar. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarda kasb-hunar haqida tushunchalarni shakllantirish.- Samarqand: SamDU, 2014. – 54 b.
6. N.Shodiyev va boshqalar. Maktabda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha yosh o‘qituvchilarga metodik tavsiyalar.- Samarqand: SamDU, 2004. – 33 b.
7. Sh.Baratov. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. – T.: O‘qituvchi, 1986, - 51 b.
8. S.Boltayev va boshqalar. Kasb tanlashga yo‘llash. Ma’ruzamatni. – T.: ToshDPU. 2000.
9. I.N.Aslonov. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalarining hamkorligi masalalari. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2016 yil, 5-son. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalarining hamkorligi masalalari – tema nauchnoy stati po naukam ob

obrazovanii chitayte besplatno tekst nauchno-issledovatelskoy raboty v elektronnoy biblioteke KiberLeninka.